

OILA PSIXOLOGIYASI

Eshmurotova Mushtariy

DTPI Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi

1-bosqich talabasi.

Mushtariy2567@gmail.com

Yo'ldoshev Tojiddin Abdukarimovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila psixologiyasi va farzandlar psixologiyasini yaxshilash haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'z: *Oila, psixologiya, farzand, tarbiya, jamiyat, aspect, nikoh, xulq, regulyativ, o'smirlik, muloqot, nizo.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается совершенствование семейной психологии и детской психологии.*

Ключевые слова: *Семья, психология, ребенок, воспитание, общество, аспект, брак, поведение, регуляция, подростковый возраст, общение, конфликт.*

Abstract: *This article discusses the improvement of family psychology and child psychology.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается совершенствование семейной психологии и детской психологии.*

Key words: *Family, psychology, child, upbringing, society, aspect, marriage, behavior, regulatory, adolescence, communication, conflict.*

Kirish

Oila psixologiyasida ikki inson munosabati juda muhim hisoblanadi. Dastavval ko'rishimiz mumkinki bu farzandlar tarbiyasiga juda muhim ahamiyat kasb etadi. Oila psixologiyasi- bu oiladagi munosabatlar, psixologik jarayonlar va

muommolarni o'rganishga qaratilgan fan sohasi. U oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan hissiy, kommunikativ va ijtimoiy aloqalarni tahlil qilish hamda ularni yaxshilash. Oila-ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay 19-20- asrlarda ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlar. Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofdagi muommolarini, qadryatlarini, inobatga olmagan bo'lsa.

Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini uning o'ziga tobe qilib, buysindirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadryatlari, tarixi va ma'naviyatida judo qilishga o'rgatadi.¹

Oila psixologiyasini yaxshilashda uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi ikki davrni o'z ichiga qamrab oladi:

Birinchi davr- hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, mahallalardagi homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy, tibbiy, psixologik yordam ishlari tizimli tashkil qilinadi. Yosh ota-onalar bola parvarishini va tarbiyasiga tayyorlanadi.

Ikkinchi davrda- bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr orasida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar metodikasi ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq etiladi.

Homilador ayollar o'qishi tavsiya etiladi tibbiy-ma'rifiy, tarbiyaviy, badiiy va elektron adabiyotlar turkumlari tayyorlanadi, ro'yxati shakllantiriladi va tarqatiladi.

Mahalla, oilalarda ota-onalar va bolalar ma'naviy tarbiyaviy munosabatlarini tahlil etish asosida "Namunaviy oilaviy tarbiya muhiti" mezonlarini belgilash va shu asosida mahalla, tuman, shahar, hududlar va respublika tanlovlarini o'tkazish.

¹ Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" T: Ma'naviyat 2008.

Oiladagi ma'naviy – axloqiy qadryatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o'rgatish, ajralishlarning oldini olishda “ Ota – ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar” prinsipi asosida. Ota-onalik- burch va baxt tadbirlarini tashkil etish.²

Asosiy qism: Oiladagi munosabatlarning psixologik asosi. Oiladagi asosiy munosabatlar er-xotin, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi aloqalardan tashkil topadi. Bu munosabatlarning sog'lom bo'lishi uchun bir qancha muhim jihatlari mavjud.

Ishonch. Har bir oila a'zosi bir-biriga ishonch va o'z his-tuyg'ularini erkin ifoda qilishi kerak. **Empatiya:** Oila a'zolari bir-birining his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilishlari muhim.

Qo'llab-quvvatlash: Oila murakkab vaziyatlarda birlashib, bir-birini ruhlantirishi lozim. Oiladagi rollar va vazifalar. Oiladagi har bir shaxs o'ziga xos ro'l va mas'uliyatga ega: Er-xotin munosabatlari: Sevgi, ishonch va hurmatning mustahkam bo'lishi zarur. Oilaning barqarorligi er va xotinning birgalikda ishlashiga bog'liq. Ota-ona vazifalari: Farzandlarni tarbiyalash va ularga yetarli darajada e'tibor qaratish oila psixologiyasining markaziy qismidir. Farzandlarning o'rni: Bolalar oilaning bir qismi sifatida hurmatga loyiq va rivojlanish uchun qulay muhitda bo'lishlari kerak.

Oiladagi nizolar va ularni hal etish

Nizolar har qanday oilada bo'lishi tabiiy, chunki har bir shaxsning fikri va ehtiyojlari farq qiladi. Ularni hal qilish uchun:

Nizo sababini tushunish:

Nima uchun muammo yuzaga kelganini aniqlash zarur.

² Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va u amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida 2019-yil 31- dekabr 1059-son qarori

Konstruktiv muloqot: Hissiyotlarga berilmasdan, muammoni tinchlik bilan muhokama qilish lozim. Murosa qilish: Har ikki tomon ham o'zaro kelishishga tayyor bo'lishi kerak.

Oilaviy tarbiya

Farzand tarbiyasi oila psixologiyasining eng muhim jihatlaridan biridir.

Bunda:

Ijobiy muhit yaratish:

Farzandlar o'zlarini xavfsiz va sevib turilgan his qilishlari kerak.

Shundagina oila psixologiyasi yaxshilanishi mumkin.

O'rnak bo'lish: Bolalar ota-onaning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga taqlid qilishadi. Shuning uchun ota-ona o'zlarini namuna bo'ladigan darajada tutishlari lozim. Me'yordan oshirmaslik: Haddan tashqari talabchan yoki loqayd bo'lish bolalar ruhiyatiga zarar yetkazishi mumkin. Stress va krizislarni boshqarish.

Har bir oilada qiyinchilik va inqiroz davrlari bo'lishi mumkin:

Tushunish va yordam: Qiyinchiliklarga birgalikda yechim topishga intilish.

Stressni boshqarish usullari: Ruhiy zo'riqishni yengillashtirish uchun birga dam olish va vaqt o'tkazish muhim.

Oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya xususiyatlarining oila psixologiyasiga ta'siri yuqori ko'rinadigan jihatlari. Muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish. O'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish baho berishga o'rgatish, ilk ma'naviy – tarbiyaiy motivlarni shakllantirish, o'z-o'ziga xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'maklarini o'rnatish.

Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi nikohga kiruvchilar sonining kamayishi va nikoh uchun sherik tanlash tartiblarining qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu urug'-qabila bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan

kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o`zida birlashtirgan. SHu tariqa urug' – mohiyatan matriarxal oila bo`lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi “matreshka” o`yinchog'i bo`lib, u bizga ona avlodlarining o`zaro bir-birlaridan kelib chiqishini ifodalaydi.

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo`lishini o`rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarini, oila a'zolari o`rtasidagi munosabatlarning – mehribonlik, g'amxo`rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo`ysunish, yetakchilik kabi o`ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsiomti va o`zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o`rtasidagi hissiy-emotsional bog`liqlikni, oilaviy ro`zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog`liq bo`lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o`rganadi. Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o`zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila – ro`zg'or yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o`rganuvchi fan tarmog'idir. Har bir oila konkret davr, vaqt, zamon va makonda mavjud bo`lganligi sababli, u avlodlararo bog`liqlik, ma'naviy meros, milliy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusmlarni saqlovchi noyob inosniy uyushmadir. SHu institut bo`lgani sababli, har bir millat, elat va xalqlarning noyob udumlari asrlar osha saqlanib kelmoqda.

Bola tug`ilishining dastlabki, onlarida ona va bola o`zaro hissan va psixologik jihatdan bog`langan bo`lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. SHu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qo`shilib ketganlik, yaxlitlik) bo`ladi. Bola ulg'ayib, katta bo`lgani sari ular o`rtasidagi masofa,

psixologik distantsiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi.³

Umuman, nikoh deb atalmish qadriyatning mavjudligi va unga avlodlarning e'tiqod qilishi ham oilaning muhim vazifasidir. Ijtimoiy psixologiya oila psixologiyasini o'rganganda, unga jamiyatning bir bo'g'ini, kichik ijtimoiy guruh sifatida qaraydi. SHu sababli ham konkret izlanishlarda uning paydo bo'lishi, mavjudligiga asos bo'luvchi omillarni va tugashi bilan bog'liq holatlarga e'tiborni qaratadi. Zero, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi. Ayrim olimlar, masalan, frantsuz tadqiqotchisi Le Ple o'z vaqtida oilada sof psixologik qonuniyatlardan tashqari, ro'zg'orni boshqarish, farzandlar soni va tarkibiga ko'ra oila byudjetining o'zgarishlarini inobatga olib, uni ijtimoiy iqtisodiy qonuniyatlar maskani deb atashni ham taklif etgan. Uning fikricha, oilaviy o'zaro munosabatlar nihoyatda o'zgaruvchan bo'lib, ular zamon va davr ta'sirida, oila a'zolarining soni va sifatiga bog'liq tarzda tinimsiz sifat o'zgarishlarini boshdan kechirishini, hattoki, er-xotin o'rtasidagi odatiy munosabatlar yillar tazyiqi, jamiyat normalari, sanoatning rivoji yoki ma'naviyatning tanazzuli ta'siri ostida boshqacha tus olishi mumkinligini, ota-ona – bola munosabatlari tizimi, bunda hattoki, otaning avtoriteti ham o'zgarib borishi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi psixologik masofa yillar o'tishi munosabati bilan uzoqlashib ketishini ta'kidlaydi. Xorij mamlakatlarida oilaviy munosabatlarga qiziqish o'tgan asrning boshlarida keskin oshdi. Taniqli tadqiqotchi olimlar U.Jems, CH.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freyd kabilar oilaning davrasida ro'y beradigan shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e'tibor berishib, bir shaxsning boshqa bir shaxs ta'sirida qanday qilib, o'z sifatlarini takomillashtirishi, o'zgartirishi, tarbiyalanishi kabi qator masalalarni o'rgandilar. Natijada, bu borada olib

³ Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis ... psixologiya fanlari nomzodi. 19.00.05. – T.: 2004. – 145 b.

borilajak ilmiy izlanishlarning naqadar muhimligi o`z navbatida jamoatchilikning diqqat-e`tiborini tortdi. Olimlar oila borasida o`tkaziladigan tadqiqotlar va unda qo`llaniladigan usullarning noyobligini ta`kidlashib, oila tadqiqotlarida rioya etilishi zarur bo`lgan odob normalari haqida ham fikr yuritganlar. Masalan, amerikalik sotsiolog R.Xill va boshqalar oila va nikoh muammosini o`rganishning sermashaqqat ish ekanligini ta`kidlab, usullarni tanlash va respondentlar bilan ishlaganda quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq ekanligi to`g`risida yozgan: tadqiqot uchun shunday metodikalarni, izlanish vositalarini topish lozimki, toki u bilan respondentlarga murojaat qilinganda, oilaviy hayotga ziyon etmasin, tadqiqotchi ketgach, er-xotin munosabatlari buzilmasin; tadqiqotda oila a`zolari bevosita qatnashishi hisobga olinsa, ushbu jarayon ularning nafaqat o`zaro munosabatlarga, balki psixologik holatlari va kayfiyatlariga ham salbiy ta`sir etmasin; tadqiqotchi ham tirik inson bo`lgani sababli, uning oilaga kirib kelishi, uydagi turmush tarziga, odatlar, o`zaro yaqinlik aloqalariga putur yetkazmasin⁴

Muammoli oilalar deb, Minuxin oila ichidagi mavjud tuzilmalar o`rtasidagi munosabatlarning buzilishini tushunadi. Masalan, “pa-de-de” tipidagi oila (frantsuzcha pas de deux – ikki kishi raqsi ma`nosini bildiradi) odatda faqat ikki kishidan iborat bo`lib, bunday oilada farzand bo`lmaydi.

❖ Modda.

Oila to`g`risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o`zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a`zolarining mas`ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o`zboshimchalik bilan aralashishiga yo`l qo`ymaslikdan, oila a`zolari o`z huquqlarini to`sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta`minlashdan iboratdir.⁵

⁴ Vasila Karimova “Oila psixalogiyasi.” T: 2007

⁵ O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 1998. – 302 b

Xulosa: Oila psixologiyasi har bir a'zoning ruhiy sog'lig'ini, munosabatlarni va barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi. Sog'lom oilaviy muhit nafaqat oila a'zolarining shaxsiy hayotiga, balki jamiyatga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'rishimiz mumkin bo'ladiki oilada ota-onalarimizning o'rni juda muhim hisoblanadi har bir jabhada. Chunki, ularning psixik holati, ko'rinishi muloqoti, o'zaro oila a'zolarining bir-biriga munosabati bularning barchasi bolaga ta'sir qiladi. Oila psixologiyasidan eng muhim narsa bu farzand tarbiyasi hisoblanadi, buning uchun ularga ijobiy ijtimoiy muhit zarur bo'ladi. Bejizga aytishmagan “ Qush uyasida ko'rganini qiladi “ – deb.

Tadqiqotlarda eng muhim metodologik tamoyil shundan iborat bo'ladiki, oilani o'rganayotgan shaxs uni oddiy oila a'zolari yig'indisi sifatida emas, balki barcha oila a'zolari o'rtasida murakkab va serqirra munosabatlar tizimi mavjudligini, ular har bir a'zoning berajak javoblarida aks etishini unutmash kerak. Ya'ni, oila va undagi munosabatlar hamisha tashqi psixologik ta'sirida bo'ladi. Unga kichik ijtimoiy guruh sifatida qarash esa, kichik guruhga xos bo'lgan deyarli barcha ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning borligi va ular har bir oila a'zosining maqomini belgilashini inobatga olishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va u amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida 2019-yil 31- dekabr 1059-son qarori
2. Yadgarova G.T. Noto'liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis ... psixologiya fanlari nomzodi. 19.00.05. – T.: 2004. – 145 b.
3. Vasila Karimova “ Oila psixalogiyasi.” T: 2007
4. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 1998. – 302 b
5. Abdulkarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
6. Abdulkarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.

7. Yuldashev, T. (2022, February). Measures to eliminate or prevent the manifestation of personality aggression. In *Conference Zone* (pp. 227-229).
8. Abdugarimovich, Y. T. (2023, January). SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF YOUNG PEOPLE FOR THE FAMILY. In *Conference Zone* (pp. 147-149).